



Xorazm Viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Xorazm viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 12 902,9 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 12 570,8 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 102,1 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 230,0 mlrd so'mni tashkil qildi.

Xorazm viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025-yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Qo'shko'pir (1456,8 mlrd so'm), Urganch (1420,1 mlrd so'm), Xonqa (1344,2 mlrd so'm), Shovot (1303,2 mlrd so'm), Gurlan (1245,5 mlrd so'm) va Bog'ot (1221,1 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.



Aksincha kam hajmga ega hududlarga Yangiariq tumani (1023,4 mlrd so'm), Yangibozor tumani (927,7 mlrd so'm) va Tuproqqal'a tumanini (315,5 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Xorazm viloyati	12 902.9	104,0
Urganch shahri	301,6	102,3
Xiva shahri	52,5	106,4
Bog'ot tumani	1 221,1	104,4
Gurlan tumani	1 245,5	101,9
Qo'shko'pir tumani	1 456,8	103,4
Urganch tumani	1 420,1	103,3
Hazorasp tumani	1 191,7	102,3
Tuproqqal'a tumani	315,5	106,6
Xonqa tumani	1 344,2	105,5
Xiva tumani	1 099,5	105,4
Shovot tumani	1 303,2	104,8
Yangiariq tumani	1 023,4	104,8
Yangibozor tumani	927,7	104,4

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Tuproqqal'a (106,6 %), Xonqa (105,5 %), Xiva (105,4 %), Shovot (104,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Yangibozor (104,4 %), Qo'shko'pir (103,4 %), Urganch (103,3 %), Gurlan (101,9 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2025-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 12 389,8 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 3084,2 mlrd so'mni (107,1 %), chorvachilik mahsulotlari 9 305,6 mlrd so'mni (102,6 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Urganch (1 383,8 mlrd so'm), Qo'shko'pir (1366,1 mlrd so'm), Xonqa (1306,9 mlrd so'm) va Shovot (1 275,0 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Gurlan tumani (1 215,0 mlrd so'm), Bog'ot tumani (1163,7 mlrd so'm) va Xiva tumanini (1 027,0 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Tuproqqal'a (106,7 %), Xonqa (105,3 %), Xiva (105,2 %), va Shovot (104,5 %) tumanlarida qayd etildi. Hazorasp (102,1 %) va Gurlan (102,0 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 79,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 16,0 % i fermer xo'jaliklariga, 4,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

2025-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari hajmi 12 389,8 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Bog'ot (379,8 mlrd so'm), Urganch (344,3 mlrd so'm), Xonqa (342,1 mlrd so'm), Shovot (326,1 mlrd so'm) va Xiva (296,1 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Gurlan (270,8 mlrd so'm), Yangibozor (261,0 mlrd so'm), Yangiariq (243,0 mlrd so'm) va Hazorasp (226,6 mlrd so'm) tumanlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Tuproqqal'a (113,9 %), Xiva (110,0 %) Xonqa (109,5 %) va Yangiariq (109,0 %) tumanlarida qayd etildi. Bog'ot (106,7 %), Qo'shko'pir (106,1 %), Urganch (105,6 %) va Hazorasp (104,1 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 431,7 ming tonna donli ekinlar (2024-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 7,7 % ga ko'p), 84,4 ming tonna kartoshka (3,3 % ga ko'p), 126,8 ming tonna sabzavotlar (4,9 % ga ko'p), 13,4 ming tonna poliz ekinlari (9,8 % ga ko'p), 43,4 ming tonna meva va rezavorlar (9,2 % ga ko'p), 1,4 ming tonna uzum (9,8 % ga ko'p) yetishtirildi.



Yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

	Yanvar-iyun 2025-y.	O'sish sur'ati, % da
Donli ekinlar, ming tonna	431,7	107,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	320,4	106,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	86,1	101,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	25,2	160,8
Kartoshka, ming tonna	84,4	103,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	23,1	106,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	59,4	102,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,9	109,1
Sabzavotlar, ming tonna	126,8	104,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	24,1	114,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	90,6	101,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	12,1	110,7
Poliz ekinlari, ming tonna	13,4	109,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	9,3	113,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	3,9	100,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,2	145,7
Meva va rezavorlar, ming tonna	43,4	109,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	15,2	123,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	27,6	101,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,6	299,0
Uzum, ming tonna	1,4	109,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	0,8	116,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	0,6	101,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,013	108,3



2025-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, donli ekinlar yetishtirishning 74,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 19,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

**2025-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
dehqonchilik mahsulotlari (ming tonna)**

	<i>Donli ekinlar</i>	<i>Kartoshka</i>	<i>Sabzavotlar</i>
Xorazm viloyati	431,7	84,4	126,8
Urganch shahri	0,3	0,9	0,4
Xiva shahri	0,1	0,2	1,8
Bog'ot tumani	41,5	8,6	24,7
Gurlan tumani	47,5	7,5	9,9
Qo'shko'pir tumani	43,1	4,6	10,2
Urganch tumani	47,8	12,3	11,3
Hazorasp tumani	32,8	4,4	8,2
Tuproqqal'a tumani	16,8	1,5	2,6
Xonqa tumani	50,2	12,0	12,6
Xiva tumani	36,7	8,9	14,1
Shovot tumani	51,3	8,2	9,6
Yangiariq tumani	26,3	6,2	11,9
Yangibozor tumani	37,3	9,1	9,5

Shunga mos ravishda kartoshkaning 27,4 % i fermer xo'jaliklariga, 70,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, sabzavotlarning 19,0 % i fermer xo'jaliklariga, 71,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 9,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, poliz ekinlarining 69,0 % i fermer xo'jaliklariga, 29,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, meva va rezavorlarning 34,9 % i fermer xo'jaliklariga, 63,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, uzumning 58,5 % i fermer xo'jaliklariga, 40,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.



2025-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan ayrim turdagi dehqonchilik mahsulotlari hajmi (ming tonna)

	<i>Poliz ekinlari</i>	<i>Meva va rezavorlar</i>	<i>Uzum</i>
Xorazm viloyati	13,4	43,4	1,4
Urganch shahri	0,1	0,2	0,01
Xiva shahri	0,3	0,2	-
Bog'ot tumani	0,6	4,0	0,3
Gurlan tumani	0,3	1,7	0,1
Qo'shko'pir tumani	1,4	3,4	0,1
Urganch tumani	1,0	6,3	0,07
Hazorasp tumani	0,9	4,3	0,2
Tuproqqal'a tumani	0,9	1,9	0,07
Xonqa tumani	3,0	3,4	0,1
Xiva tumani	2,3	4,5	0,06
Shovot tumani	0,6	5,7	0,1
Yangiariq tumani	0,8	4,4	0,1
Yangibozor tumani	1,2	3,4	0,2

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Qo'shko'pir (1 097,6 mlrd so'm), Urganch (1 039,5 mlrd so'm), Xonqa (964,8 mlrd so'm), Shovot (948,9 mlrd so'm) va Gurlan (944,2 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Bog'ot tumani (783,8 mlrd so'm), Yangiariq tumani (721,0 mlrd so'm) va Yangibozor tumanini (641,0 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Yangibozor (103,8 %), Xonqa (103,6 %), Xiva (103,1 %), Shovot (102,6 %) tumanlarida qayd etildi. Tuproqqal'a (102,6 %), Qo'shko'pir (102,3 %) va Hazorasp tumanlarida (101,5 %) esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 101,1 ming tonna go'sht, 584,3 ming tonna sut, 253,3 mln dona tuxum, 682 tonna qirqib olingan jun, 6,2 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 9,4 ming tonna baliq ovlandi. Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,7 % ni, sog'ib olingan sut – 102,4 % ni, olingan tuxum – 103,5 % ni, qirqib olingan jun – 103,6 % ni, olingan qorako'l teri – 102,4 % ni hamda ovlangan baliqlar – 111,2 % ni tashkil qildi.



**2025-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliq**

	Yanvar-iyun 2025-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	101,1	102,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	3,5	109,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	89,2	102,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	8,4	102,3
Sut, ming tonna	584,3	102,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	30,4	108,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	550,9	102,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,0	115,8
Tuxum, mln dona	253,3	103,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	26,3	105,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	175,7	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	51,3	114,5
Jun, tonna	682	103,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	91	98,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	557	102,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	34	147,8
Qorako'l teri, ming dona	6,2	102,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	0,6	103,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	5,5	101,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,1	131,2
Baliq, ming tonna	9,4	111,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	6,5	108,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	0,6	101,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,3	124,0



2025-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 3,5 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 88,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 5,2 % i fermer xo'jaliklari, 94,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, olingan tuxumning 10,4 % i fermer xo'jaliklariga, 69,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 20,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 13,3 % i fermer xo'jaliklari, 81,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 5,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 10,0 % i fermer xo'jaliklariga, 88,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 69,3 % i fermer xo'jaliklariga, 6,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 24,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

2025-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar (ming tonna)

	<i>Go'sht (tirik vaznda)</i>	<i>Sut</i>	<i>Tuxum, mln dona</i>	<i>Baliq</i>
Xorazm viloyati	101,1	584,3	253,3	9,4
Urganch shahri	4,3	3,0	1,2	-
Xiva shahri	0,3	3,6	3,2	0,0
Bog'ot tumani	8,4	44,5	27,3	1,1
Gurlan tumani	9,6	63,4	20,3	0,5
Qo'shko'pir tumani	16,7	58,7	16,4	1,4
Urganch tumani	10,5	71,0	35,6	0,3
Hazorasp tumani	8,6	68,3	21,1	0,8
Tuproqqal'a tumani	2,1	13,0	4,5	0,3
Xonqa tumani	9,4	64,9	47,9	0,4
Xiva tumani	7,8	42,6	26,8	2,0
Shovot tumani	9,9	60,2	18,4	0,6
Yangiariq tumani	7,5	45,0	16,0	1,7
Yangibozor tumani	6,2	45,9	14,7	0,3



IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025-yilning 1-iyul holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 975,7 ming boshga yetdi (2024-yilning 1-iyul holatiga nisbatan 1,4 % ga ko'p), sigirlar 368,3 ming boshga (1,8 % ga ko'p), qo'y va echkilar 500,3 ming boshga (1,2 % ga ko'p), parrandalar 7 480,6 ming boshga (105,9 % ga ko'p) yetdi.

2025-yilning 1-iyul holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	975,7	101,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	81,9	103,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	877,9	101,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	15,9	111,2
shundan sigirlar	368,3	101,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	35,0	106,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	326,8	101,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6,5	118,2
Qo'y va echkilar	500,3	101,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	89,2	101,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	380,9	102,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	30,2	89,5
Otlar	5,7	101,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	0,9	103,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4,8	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,1	113,7
Parrandalar	7 480,6	105,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1281,1	108,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	3934,6	100,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2264,9	115,6



2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,4 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 90,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 9,5 % i fermer xo'jaliklariga, 88,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 17,8 % i fermer xo'jaliklariga, 76,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 17,1 % i fermer xo'jaliklariga, 52,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 30,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2025-yilning 1-iyul holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni (ming bosh)**

	Yirik shoxli qoramollar	shundan, sigirlar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Xorazm viloyati	975,7	368,3	500,3	7480,6
Urganch shahri	6,5	2,6	2,2	41,8
Xiva shahri	15,0	3,3	12,2	31,4
Bog'ot tumani	89,4	29,1	65,6	784,7
Gurlan tumani	97,5	39,3	18,6	638,0
Qo'shko'pir tumani	99,1	37,0	93,9	738,2
Urganch tumani	115,7	44,7	56,1	1045,0
Hazorasp tumani	92,2	38,5	65,2	543,0
Tuproqqal'a tumani	21,4	9,2	25,1	115,5
Xonqa tumani	111,9	38,0	29,8	934,3
Xiva tumani	70,6	29,8	22,8	642,3
Shovot tumani	97,0	34,7	42,9	852,7
Yangiariq tumani	74,5	30,3	44,1	598,3
Yangibozor tumani	85,0	31,8	21,8	515,3



V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sultari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
T. Xodjayev
6222 4-64-96 (9110)

Manzil:

